

YOZUVGA O'RGATISH USULLARI VA TAMOYILLARI.

Amirkulova Zebiniso Mustafakulova

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti

Bo'riyeva Marjona Salomovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ish sinf o'quvchilarini husnixatga tayyorlash va bu borada bolalarga husnixatni o'rgatish usul va tamoyillariga to'xtalib o'tganman.

Kalit so'zlar: chiziqli usul,genetic usul,namuna,namunaga qarab yozish,namunaga qarab ko'chirib yozish usuli,nusxa ko'chirish usuli'mexanik jarayon.

Husnixatga o'rgatishning usullari. Husnixatga o'rgatish fani ham boshqa fanlar qatori o'zining tarixiy manbalariga ega bo'lgani holda o'sib, rivojlanib bormoqda. Quyida biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilishi zarur bo'lgan eng asosiy yozuv usullari haqida fikr yuritamiz. Bu usullar quyidagilardir:

- Chiziqli usul.
- Genetik usul.
- Namunaga qarab yozish usuli.
- Namunaga qarab ko'chirib yozish usuli
- Nusxa ko'chirish usuli.
- Tasavvur orqali yozish usuli
- Sanoq-ohang (ritmik) usuli.
- Harf shakllarini tahlil qilish usuli.
- Yozuv malakasini ongli o'zlashtirish usuli.

- Qo‘l harakatini mashq qildirish usuli.
- Xatolar ustida ishlash usuli

Chiziqli usul. Qaysidir harfning yozilishini o‘rganish uchun o‘quvchi bu harf qanday belgilarga ega ekanligini, harfdagi alohida elementlarning joylashish o‘rnini, uning kattaligini o‘rganib olishi kerak. O‘quvchiga harfning yozilishini to‘g‘ri o‘rgatish uchun uning chiziqdagi o‘rnini to‘g‘ri joylashtirish va chiziqning qog‘oz varag‘ida joylashish o‘rnini bilish uchun qog‘ozda gorizontal, yotiq chiziqlar chiziladi, shunda daftarning sahifasida o‘ziga xos setka paydo bo‘ladi. O‘quvchilar unga har bir harfni alohida yozib boradilar. Chiziqli usulning o‘ziga xos ijobiy xususiyatlaridan tashqari, setkaning ichiga yozish bir qator kamchiliklarga ega bo‘lib, bular quyidagilardan iboratdir: 1) tez-tez uchrab turadigan kataklarga yozish bolani bir muncha cheklab qo‘yadi, uning diqqatini bo‘ladi; bir tomondan o‘quvchi kerakli harfni yozayotgan qo‘lining harakatini kuzatib borsa, ikkinchi tomondan esa harflar chiziqdan tashqariga o‘tmasligini kuzatib boradi; 2) kataklar orasiga yozishni o‘rgangan bola aniq va tez yozish malakalarini egallay olmaydi. Ikkinchi sinfdayoq bolalar bir chiziqli daftarga yozishga o‘tadilar; 3) qo‘l kaftlarining va panjalarining erkin harakatlanishini rivojlantirish uchun bir qator usullar hamda yozuvga o‘rgatishda mashq xarakteriga ega bo‘lgan alohida mashg‘ulotlarsiz ish bitmaydi. Bunda muskullar va qo‘lning kaft qismi yaxshi rivojlanmaganligini hisobga olish lozim. Bolalarda ko‘rsatkich barmoq va, ayniqsa, uning uchi yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi, shuning uchun bola ko‘rsatkich barmoq bilan ruchkani qattiq bosib yozadi. Bolalar katta barmoqdan ham yaxshi foydalana olmaydilar, buning natijasida o‘z xohishlaricha ushlaydilar. Shuning uchun ham ko‘rsatkich va katta barmoqning mayda muskullarini rivojlantirish lozim. Tayyorgarlik mashqlarini bajarish bilan bolalar qo‘llarini harf unsurlarini nozik va aniq harakatlar bilan ifodalashga tayyorlab boradilar. Bunday mashqlarning maqsadi barmoqlar harakatining yengil va egiluvchan bo‘lishiga erishishdir. Ular o‘quvchilarga harflarni husnixatda yozishga va uni tez yozuvda rivojlantirishga yordam beradi. Bu uslubni 1- sinfning 1-yarim yilligida yozuvga endi o‘rgatishga boshlagan davrda qo‘llash katta ahamiyatga ega. Masalan, pastga aylana shaklida yoziladigan shtrixni yozish uchun barmoqlarni aylana harakat qilishga mashq qildirish

lozim. Keyinchalik bu harakatlar "O" harfini yozishga ham yordam beradi. Yozuvda yoki uslubda ko'rsatib o'tilgan mashqlarning barchasini birdaniga bajarish mumkin emas, balki u yoki bu harfni o'rgatish uchun dars jarayonida kerak bo'ladigan, qo'l va barmoqlarni to'g'ri harakatlantirishga yordam beradigan uslubni tanlash kerak. Genetik usul. Genetik usul to'g'ri yozishga o'rgatishning asosiy usuli hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim dasturida ko'rsatilishicha, "Alifbe"ni o'rganish vaqtida bolalar "Alifbe"da harflar qanday joylashgan bo'lsa, shu tartibda yozishga, oson yoki qiyinligidan qat'i nazar, ketma-ket o'rganib boradilar. Genetik usul bilan yozuvga o'rgatish hozirgi kunda "Alifbe"ni o'rganib bo'lgandan so'ng to'g'ri yozuvga o'rgatishning butun borishida amalga oshiriladi. Bu usulning afzalligi shundan iboratki, o'quvchi yozuvdagi harfni "Alifbe"dagi tartibda emas, balki uning yozilishidagi murakkab tomonlariga va yozuvdagi harf avvalgi yozuv mashqlariga mos bo'lishi kerakligiga e'tiborini qaratadi. Oldiniga o'quvchilar oddiyroq va yengil harflarni yoza boshlaydilar, keyinchalik esa birmuncha murakkabroq va oxirida qiyin mashqlarni yozadilar. Bunday ketma - ketlikning afzallik tomoni shundaki, o'quvchi 1-2 ta unsumni o'zlashtirib olib shakliy jihatdan soddaroq bo'lgan harfga o'tadi, so'ng qandaydir shtrixni yoki alohida bir unsumni qo'shish orqali yangi harflarni, tuzilishi jihatidan murakkabroq bo'lgan harflarni o'rganishga o'tadilar. Alohida unsumni o'rganganlaridan so'ng, alohida harflarga ega bo'lan yozuvga, undan keyin so'z yozishga o'tiladi. Bu quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1. O'qituvchi ayni vaqtda yozuv bilan shug'ullanishlarini aytib o'tadi, o'quvchilar mashg'ulotga kerak bo'ladigan narsalarni tayyorlab qo'yadilar. 2. Undan keyin o'qituvchi sinf doskasidagi harf yoki so'zning yozilish tartibini tushuntirib beradi, o'quvchilar esa o'qituvchining yozish jarayonidagi qo'l harakatlarini takrorlab borishlari lozim. 3. O'qituvchi tomonidan aytilgan so'z o'quvchilar bilan o'qib chiqiladi va "havoda yozish" mashqlari bir necha bor takrorlanadi. Bunday tayyorgarlik mashqlaridan so'ng o'quvchilar daftarga yozishga o'tadilar. Agarda o'quvchi yozish jarayonida qandaydir bir unsumni yoki biron - bir harfni yozishda qiynalsa, uning ustida ishlashga vaqt ajratiladi va yozishda qiynalayotgan u yoki bu unsumni yoki harfni yozishni mashq qildirish va uni yaxshilab o'zlashtirib olingandan so'ng, yoza boshlangan so'zni davom ettirishga kirishiladi. Yozish malakasini egallab borishga

o'rgatish maqsadida avvaliga sodda unsurlardan tashkil topgan so'zlarni, keyin esa murakkabroq so'zlarni yozishga o'tiladi.

Namunaga qarab yozish usuli. Husnixatga o'rgatish usullaridan biri harflarning shaklini namuna qilib ko'rsatish va yozdirishdir. Har bir harfning namunasi doskada barcha o'quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o'quvchilarga daftarda alohida-alohida ko'rsatiladi. O'quvchining vazifasi esa doskada eslab qolgan shakllarni (harf, bo'g'in, so'zlar) o'z daftarlariga to'g'ri aks ettirishdir. Doskada yozib ko'rsatilgan har bir harf barcha o'quvchilarga aniq ko'rinib turishi shart. Agar ayrim o'quvchilar uni aniq ko'rmagan bo'lsalar, qaytadan takrorlab ko'rsatiladi. Ayniqsa, yangi harf yoki ularning bog'lanishini ko'rsatish vaqtida qayta-qayta takrorlash juda muhimdir. O'qituvchi har bir harf va harflarning bog'lanishini og'zaki yoki doskada tushuntirish orqali, qo'lni qayerga qo'yish kerak, qayerda qo'l harakati buriladi, harflarning baland-pastligi qay darajada bo'lishi kerakligini ko'rsatmalar orqali tushuntirib beradi. Keyinchalik o'quvchi u yoki bu harfni o'qituvchi bergan ko'rsatmalar asosida tushunib yozadilar.

Namunaga qarab ko'chirib yozish usuli. Bu usul eski usul bo'lib, hozirgi kunda ham qimmatini yo'qotmagan holda qo'llanilmoqda. Bu usulda o'quvchilar harflarni "Husnixat" kitobi, "Husnixat" daftari yoki "Yozuv daftari" dagi namunalarga qarab ko'chirib yozadilar. Namunaga qarab ko'chirib yozish tayyor harflarning ustidan yozishga nisbatan ancha murakkab bo'lib, ularning har ikkalasini qaysi vaqtda qo'llashni o'qituvchi yaxshi bilishi kerak. "Husnixat" darsligida yoki "Yozuv daftari"da berilgan namunaga qarab yozdirish o'qituvchining vaqtini tejaydi, unumli ishlashga imkoniyat yaratadi. Bunga erishish uchun barcha o'quvchilar darslik bilan ta'minlangan bo'lishlari zarur

Nusxa ko'chirish usuli (harf surati ustidan yozish). Bu usulni harflar shaklini to'g'ri tasavvur eta olmaydigan, yozishda daftar chiziqlaridan pastga tushib yoki tepaga chiqib ketadigan o'quvchilar uchun qo'llash mumkin. O'quvchilar qaysi harfni yozishda qiynalayotgan yoki xatoga yo'l qo'yayotgan bo'lsalar, o'qituvchi ularning daftarlariga xato yozilgan harfni nuqtalar bilan ifodalab berishi va o'quvchi bu nuqtalarni bir-biriga tutashtirgan holda ular ustidan siyoh yurgizib chiqishi maqsadga muvofiqdir. Tayyor holdagi nuqtalar bilan ifodalangan harflar ustidan qo'lni yurgizib mashq qilish mexanik

jarayon bo'lib, o'quvchilar bu topshiriqni oson bajaradilar. Ayrim hollarda nuqtalar bilan ifodalangan harflar orasini kengroq tashlab, ular orasida mustaqil mashqlarni ham o'z daftarlarida bajarishlari mumkin.

Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilarning daftarlariga oddiy qora qalam bilan ham namuna berishi va o'quvchilar qalam ustidan yozishlari mumkin, bu usul ham samarali usullardan sanaladi. Masalan, o'quvchi D harfini yozishda xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, o'qituvchi daftarga qalamda uni nuqtalar bilan, ba'zan esa qora qalam bilan ifodalab ko'rsatadi, o'quvchi esa uning ustidan ruchkada yurgizib chiqadi. Bu usul o'quvchilarning shu harf haqidagi tasavvurini shakllantiradi. Lekin bunday mashqlar qo'l harakatini o'stirish uchun yordam beradi, xolos. Bundan uzoq foydalanish yaxshi samara bermaydi, o'quvchi harf shaklini mustaqil yoki namunaga qarab yozishda qiynaladi. Shuning uchun nusxa ko'chirish usulidan faqat yakka shug'ullanganda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tasavvur orqali yozish usuli. O'qituvchi doskaga yozib ko'rsatgan harf va uning bog'lanishlarini o'quvchilarga ruchkani havoda harakatlantirib ko'rsatadi va bu orqali o'quvchida harf haqida tasavvur hosil qilinadi. O'quvchilar daftarga yozishdan oldin qo'llariga ruchka ushlagan holda havoda yozib mashq qiladilar. Bu harakat 2-3 marta qaytarilgandan so'ng o'quvchi daftarga yozishga kirishadi. Bunday mashq usuli o'quvchining qiziqishini oshiradi hamda jismoniy mashqlarni bajarishga ham imkon beradi. Bu usulning salbiy jihati ham bor. Chunki o'qituvchi bu usuldan foydalanganda, barcha o'quvchilarning qo'l harakatining to'g'ri yoki noto'g'riligini bir paytda tekshira olmaydi. Bunda bir necha o'quvchining qo'l harakatini kuzatib, tegishli ko'rsatmalar berishi mumkin. Nusxa ko'chirish, tasavvur orqali yozish husnixatga o'rgatishda yordamchi usullardan sanaladi.

Sanoq-ohang (ritmik) usuli. Sanoq-ohang usuli o'qituvchi sanog'i ostida harf va uning unsurlarini (elemenlarini) yozish demakdir. Bu usul qiziqarli usul bo'lib, butun sinf

bilan ishlash imkoniyatini beradi. Undan savod o'rgatish davrida foydalanish mumkin. Sanoq-ohang usulining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Harflarning tekis yozilishini ta'minlaydi.
- Sekin yozadigan o'quvchilarni tez va sinfdagi barcha o'quvchilar bilan barobar yozishga undaydi.
- O'quvchilarga harakatlarni aniq va dadil bajarishni o'rgatadi.
- Sinfdan darsni jonlantiradi Lekin bu usuldan butun dars davomida foydalanib bo'lmaydi, chunki o'quvchi charchab qoladi, yozuv sifati buziladi. Ritmik usulni qo'llashda, asosan, harflarning asosiy unsuri "bir", "ikki", "uch" deb beriladi, yordamchi elementi esa "va" de bog'lanadi. Masalan, kichik m harfini yozishni quyidagicha mashq qilish mumkin: _____

Ritmik usulni qo'llashda harf yoki elementlar avval sanoqsiz yoziladi, so'ngra sanoq ostida yozdiriladi. Shuningdek, bu usul bilan yozishda dastlab sekinroq, keyinchalik tezlashtirib yozib ko'rsatiladi. Sanoq-ohang yoki ritmik usuldan bo'g'in, so'z va gaplarni yozdirishda ham foydalanilish mumkin. Biroq bu usuldan doimiy foydalanish o'quvchilarni toliqtiradi, qiziqishlarini so'ndiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- Abdullayev Y. Hamrohimi (Yangi alifbo va imlodan qo'llanma). T., "O'qituvchi", 1996
- Abdullayeva Q., Nazarov H., Yo'ldosheva SH. Savod o'rgatish metodikasi. T., "O'qituvchi", 1996
- Qosimova K va b. Ona tili o'qitish metodikasi. T., "Noshir", 2009.
- Gulomov M. Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish. T., "O'qituvchi", 1992.